

*Rizoqulova Zarina*

*Buxoro davlat Pedagogika instituti*

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi*

## EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqalaning mazmuni ekologik muammolar va ularning jamiyat hayotidagi salbiy ta'siri, ularni bartaraf etish yo'llari. O'zbekistonda Ekologiyik muomalani va ekologik xavfsizlikni o'rnatish. Ekologik nazorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish mexanizmi, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida tushuncha

**Kalit so'zlar:** ekologiya, muammo, ekologik muammo, global muammo, atrof-muhit, iqlim, davlat, siyosat, qonun, Orol g'azigi, Orol muammosi.

**Annotation.** The content of this article is environmental problems and their negative impact on the life of society, ways to eliminate them. Establishing ecological treatment and ecological safety in Uzbekistan. Understanding of the mechanism of regulating relations in the field of environmental control, the reforms being implemented in this regard

**Key words:** ecology, problem, environmental problem, global problem, environment, climate, state, politics, law, Arol phenomenon, Arol problem.

Aholi sonining ortib borishi, ilm-fan va texnika rivoji, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida er yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shuning uchun, bugungi kunda sog'lom tabiat haqida gap yuritish qiyin. Yer yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslandi. Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi o'z Ichida tabiat muvozanatiga putur yetkazdi. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning o'tkir muammolaridan bir bo'lgan ekologik muammo — Orolbo'yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, shunday dedi: “Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda”

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 22-iyuldagi “Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida” 238-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida” 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” 2017-yil 21-apreldagi PQ-2915-son qarori va shu kabi normative huquqiy hujjatlar ekologiya, ekologik nazorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyat kasb etdi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2018- yil 3 -oktyabrdagi PQ-3956-son Qaroriga muvofiq: Davlat ekologiya qo'mitasi tarkibidagi Bioxilmaxillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya va chiqindilarning hosil bo'lishi, to'planishi, saqlanishi, tashilishi, utilizatsiya qilinishi, qayta ishlanishi, ko'milishi va realizatsiyasini nazorat qilish inspeksiya negizida yuridik shaxs tashkil etmagan holda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha inspeksiya tashkil etildi.

Bugungi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta'siri ko'rsatishi natijasida atrof -muhitda sezilarli darajadagi o'zgarishlar ro'y bermoqda. Masalan, atmosferaning zaharlanishi, iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlarning sodir bo'lishi va kundan-kunga ortib borishi, o'rmonlarning yo'q bo'lishi kabi xilma-xil ofatlar yuzaga kelmoqda. Oqibatda o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda.

Shu kabi ekologik xavflar bugungi kunda tobora keng tus olib, yer yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Jahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamg'armalari va Londonning zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1970 yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52 foiz (havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76 foiz, er usti va suvda kun kechiradiganlar soni 39 foiz) qisqargan. Har yili 11 million gektar tropik o'rmon kesilmoqda. Yo'qotishlar o'rmonlarni tiklash ishlariga nisbatan 10 barobar ko'pdir. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilishi dunyo okeanidagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda

Global iqlim o'zgarishi kabi xavflar ortib bormoqda. Bu ozon qatlamining yemirilishi, tuproqning unumdor qatlamlarining yemirilishi, atmosferaning ifloslanishi natijasida inson salomatligiga jiddiy salbiy ta'sirlarni yuzaga keltirmoqda. Birgina Orol muammosining yuzaga kelishi sho'rlanish darajasining ortib insonlard suyak sistemasi bilan bog'liq bir qancha muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tabiiy muhitning inson ta'siri ostida o'zgarishi, jonli va jonsiz obyektlarga antropogen omillarning ta'siri ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Keyingi 40-45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrqa qisqarib ketdi. Suv tarkibidagi tuz miqdori 112g/l gacha yetdi .

Bunday ekologik muammolarni bartaraf etish ,qulay ekologik muhit yaratish har bir fuqarolarning bugungi kundagi asosiy vazifalari va burchlaridan biridir. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, kelasi avlodga tabiat ne'matlari boricha yetkazish, keng jamoatchilikni atrof-muhitga bo'lgan nazoratini oshirish kabi samarali dasturamal tuzish orqali ekologiya va tabiiy biologik xilma-xillikni saqlab qolish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nuttidan;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-son Qarori
3. Nig'matov A.N. O'zbekiston Respublikasining ekologik huquqi. -T., 2004.
4. Ergashev A. Umumiy ekologiya . -T., 2003
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi . -T ., 2000-2005 yy.
6. B.N. Tursunov Ekologik muammolar va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri